TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI
Q A R O R I

2023 - yil 19 - may 145-14-220-Q/23 Yangihayot tuman hokimligi

Toshkent shahar hokimining 2023-yil 10-maydagi 294-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda Toshkent shahar hokimining ““O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 10-maydagi 294-14-0-Q/23-son qarori ijrosini ta’minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Toshkent shahar hokimining ““O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 29-apreldagi 171-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qaroriga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimi to‘g‘risidagi nizom;

Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari hamda boshqa tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining funksional quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari;

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining hududiy quyi tizimi doirasidagi aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha funksiyalari tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Yangihayot tumani hokimining “Toshkent shahar hokimining 2021-yil 22-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida o‘simliklar karantini va himoyasi tizimini tubdan takomillashtirilganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi

Hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish, shuningdek, ba’zilarini o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblash to‘g‘risida”gi 752-sonli qarori ijrosi haqida”gi 588-14-0-Q/21-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida” 2022-yil 10-yanvardagi 3-14-220-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Yangihayot tumani Favqulodda vaziyatlar bo‘limi boshligi (S.Tursunov):

ikki oy muddatda mazkur qaror talablari, o‘z faoliyati xususiyatlari hamda aholini va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo‘yicha yuklangan funksiyalardan kelib chiqib, tumanda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday vaziyatlarda harakat qilish davlat tizimining tegishli funksional va hududiy quyi tizimlari to‘g‘risidagi nizom ishlab chiqilib, Favqulodda vaziyatlar vazirligi va Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi bilan kelishgan tartibda tasdiqlash uchun kiritilishi ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari M.Kamilov zimmasiga yuklatilsin.

Yangihayot tumani hokimi **X.Inogamov**